



Tursunova Manzuraxon Xoziakbar qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

MUQIMIY IJODIGA NAZAR

Annotatsiya: Ushbu maqola Muqumiy asarlari tahliliga bag‘ishlanadi. Bugungi kunda shoir tebratgan qalam kuchi mana necha asrlar o‘tgan bo‘lsada o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Biz yoshlari shunday bobo konlarimizni asarlarini hayot yo‘lini o‘rganib qancha maqola chiqarsak kam. Bir so‘z bilan aytganda, biz yoshlari buyuk bobokolonlarimiz bizga qolirgan boy ma’naviy merosini o‘rganishdan tolmaymiz.

Kalit so‘zlar: Adib hayoti, Saylov, Dar mazammati zamona, Devoni Muqimiy Voqeai Viktor, Moskovchi boy ta’rifida, Aroba qursin, Tanobchilar, Sayohatnoma.

Adabiyot ummon kabi katta va bepayon maydonni o‘z ichiga olgan manaviy merosdir. Ushbu manaviy merosni boyitish uchun ko‘plab shoir ulamolarimiz qalab tebratgan va tebratib kelmoqda. Yuqoridagi so‘zimizga misol tariqasida shoir Muqimiy (asl ism-sharifi Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li) keltirib ijod namunalariga nazar tashlab o‘tmoxchiman.

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar merosi alohida o‘rin tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandasini Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy asarlari har doim mutaxassislar diqqat markazida bo‘lgan. O‘zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan. Muhammad Aminxo‘jada she’riyatga bo‘lgan muhabbatni, hoy-u havasni uning otasidan so‘ng yolg‘iz tetepoya qildirgan onasi Oyshabibi uyg‘otdi. Butun umri qashshoklikda kechdi, ammo harakatdan toxtamadi, ijod qilishda davom etdi. Ijodining ilk davridan qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardonlik bilan insonlarni hayotidagi qiyinchiliklarni qalam bilan tasvirlardi, keyinchalik jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliyning g‘azallariga muxammaslar yozdi va o‘ziga Jomiy (taxallusi; asl ism-sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad) ni o‘ziga ustoz deb bildi. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘z davrining yetuk ulamolaridan biri Jomiy O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Shoirlarning sulton” deb ta’riflagan Alisher Navoiyning ham do‘sti ham homisi, Jomiy uni ustoz deb bilgan ekanlar.

O‘zbek adabiyotida demokratik yo‘nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan chambarchas bog‘liq. Muqimiy lirkasida real muhabbatni, insonni kuylagan, she’rlarining tubdan tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari, umumiylar qilib aytganda, hayotiylikni hajviya tarzida yozgan. Asarlarida do‘stlik, sadoqat, samimiyyat, vafodorlik va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan, adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan va albatta, shunday kunlar kelishiga ishonib yashagan bu umidni quyidagi kabi satrlar orqali ifoda qilgan: “Kelur oxir seni ham yo‘qlag‘udek bir zamon yaxshi”.

Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib berilgan («Tanobchilar» va boshqa), “Saylov”, “Dar mazammati zamona” va boshqa asarlarida o‘lkaga kirib kelayotgan kapitalistik va g‘ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari ko‘rsatib bergan. Ot, arava, loy, pashsha, bezgak kabi mavzularda 30 ga yaqin hajviy asar yaratgan. Ularda shoir turmushning qoloq va chirkin tomonlari, ijtimoiy ongdagi nuqsonlar ustidan kulgan, mustamlakachilik azobi, xarabalikni zaharxandalik bilan tasvirlagan. Bunday tasvirni “Loy” hajviyasidan misol qilib ko‘rib chiqamiz:



Ushbu hajviy asardagi loyning ta’rifida qashshoqlarga bo‘lgan azobli zamonning qiyinchiliklari to‘laqonli tavsiflab berilgan. Asarda Qishning so‘ngi kunlari Bahorning boshlanishi qorlar erib kochalarning loyligidan yurish mushkullashish vaqt, piyoda yurish qiyin, ust-boshi zar boladimi yirtiq-yamoqmi otliqmi bab-barobar loy sachraganidan chirkin ko‘rinish olishi aravalar loyga botib qolganida loydan chiqarish uchun itarib oyog‘i toyib yiqilgan zabardast polvonlarni umumiy qilib aytganda xalqning turmush kechirish tarzini loy tasvirida aks ettiradi.

Boshqa bir qator hajviyalarida jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga yangicha munosabat aks etgan (“Ta’rifi pech”, “Aroba qursin”, “Loy” va boshqa). Muqimiy o‘zbek adabiyotiga ishchilar mavzusini ham olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi (“Maskovchi boy ta’rifida”, “Voqeai Viktor” va boshqa). Turli shahar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida 4 qismli “Sayohatnama” asarini yozdi (O‘zida sayohat xotiralari va ular bilan bog‘liq tafsilotlarni aks ettirgan nasriy va she’riy asarni sayohatnomadeb ataladi. “Sayohatnama” janri sharq adabiyotida, jumladan, O‘zbekmumtoz adabiyotida o‘zigaxos shakllanish va rivojlanish tarixigaega. O‘zbek adabiyotida alohida poetik shaklda tartib topgan, keyinchalikadabiy an’ana tusiga kirgan bu janrning asoschisi Muqimiydir. Darhaqiqat, Muqimiy “Sayohatnama” lari maydonga kelib, xalq orasida mashhur bo‘lganidan keyin, xuddishu uslubda Zavqiy, Furqat, Tajalliy va shoirga zamondoshboshqa ijodkorlarning “Sayohatnama”lari yaratildi. Bu davrdagi “Sayohatnama” lar ko‘pincha she’riy shaklda yaratilgan. Ularningichki tuzilishi quyidagicha: 1. Kirish, ya’ni sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari aytildi; 2. Yo’l xotiralari batafsил bayon etiladi; 3. Sayohatlardan muayyan xulosalar chiqariladi.).

Asar yengil, o‘ynoqi vaznda yozilgan, 4 misrali bandlardan tashkil topgan. Unda xalq turmushining og‘irligi, qishloklarning vayronaligi realistik tasvirlangan. Shoир yaxshilikni maqullab, go‘zallikni madh etgan, kamchiliklar ustidan kulib, tanbeh bergen, yovuzlikni, turli illatlarni tanqid qilgan. Muqimiyning nasr va nazmdagi maktublari epistolyar (har qanday adresatga yuboriladigan xatlar, otkritkalar, telegrammalar) adabiyot namunasi hisoblanadi. 10 she’riy, 20 ga yaqin nasriy maktublari saqlangan. She’rlari qo‘lyozmalar, bayozlar (she’riy to‘plam), 20-asr boshlarida litografiya(yunoncha : lito.. + grapho – yozaman) da nashr qilingan kitoblar, Toshkent va Peterburgda bosilgan vaqtli matbuot sahifalarida bizgacha yetib kelgan.

Muqimiy ijodini o‘rganish, asarlarini to‘plash va nashr ettirish u hayot davridayoq boshlangan. Dastlab Ostroumov “Devoni Muqimiy” to‘plamini (T., 1907) nashr qilgan, so‘ng 1910, 1912 yillarda “Devoni Muqimiy maa hajviyot” nomi bilan asarlari to‘plami bosilgan. Keyingi davrlarda G‘. G‘ulom, Oybek, H. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov, G‘. Karimov, A. Hayitmetov va boshqa Muqimiy ijodini tadqiq etganlar. She’rlaridan namunalar chet tillarga tarjima qilingan. Qo‘qonda uy-muzeyi tashkil etilib, Farg‘ona viloyatidagi shaharcha, Toshkent ko‘chalaridan biri, O‘zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoир haqida Sobir Abdulla “Mavlono Muqimiy” romani va “Muqimiy” dramasini yaratgan. “Ey nozanin”, “Mustahzod” katta-yu kichikning sevimli qo‘shiqlariga aylanishga ulgurgan Muqimiyning aksariyat g‘azallari ashulaga aylangan.

Qo‘qon shahrida Muqimiyning uy-muzeyi tashkil etilgan. Farg‘ona viloyatidagi shaharchaga, Toshkent ko‘chalaridan biriga hamda O‘zbek davlat musiqali drama teatriga Muqimiy nomi berilgan. Muqimiyga bag‘ishlab Sobir Abdulla „Mavlono Muqimiy“ romani va „Muqimiy“ dramasini yaratgan. 2021-yilda O‘zbekfilm kinostudiysi tomonidan Muqimiyning hayotiga bag‘ishlangan „Muqimiy“ nomli 110 daqiqalik film suratga olingan.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy asarlari tahriri natijasida shoир asarlari nashrlarida ko‘plab matniy tafovutlar yuzaga kelgan. Bu esa asar talqiniga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Muqimiyning “Sayohatnama” asari o‘z mohiyatidan uzoqlashtirilib talqin etilganligi, “Hajvi Bektur”, “Darig‘o mulkimiz” hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi. Misralari qayta yozilgan “Ho‘qandlik bir boyning sha’niga Muqimiy shoirning aytkon she’ridur” sarlavhali she’ri kabi asarlar



Muqimiy asarlari nashrida ko‘plab uchrashini ta’kidlash kerak. Shoiring manbalardan yangi aniqlangan diniy-tasavvufiy mavzudagi g‘azal va muxammaslari mohiyatan diniy-tasavvufiy g‘oyalarning badiiy talqiniga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, shoir she’rlar mazmuniga zulm va bid’atning ofat manbai ekanligi, adolatni ulug‘lash kabi fikrlarini singdirib yuborgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘afurov, Abdurashid. 1976. Muqimiy satirasi. Toshkent: Fan.Jumaxo‘ja, Nusratullo. 1995.
2. Feruz madaniyat va san‘at homiysi. Toshkent: Fan.Jo‘raboev, Otabek. 1999.
3. “Mehriboni topmadim”. O‘zAS, 9.Jo‘raboev, Otabek. 1999.
4. “Muqimiyning “Cho‘ntak bayozi”. Guliston 2: 58 – 59.
5. Jo‘raboev, Otabek. 2001. “Qo‘lyozma manbalarda Muqimiy ijodi”. Til va adabiyot ta’limi 3: 36 – 40.
6. Jo‘raboev, Otabek. 2000. “Fitrat-u faz-lu balog‘at bo‘lg‘usidur shunchalar”. Tafakkur 3: 80 – 87.
7. Jo‘raboev, Otabek. 2008. “Muqimiy qo‘lyozmalarida forsiy she’rlar”. Sino 28: 45– 49.